

TARAQQIYOT TADQIQOTLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES: PERSPECTIVES ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT

ODILOVA Nozimaxon

Bojxona instituti

4-kurs kursanti

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI MILLIY QONUNCHILIK TIZIMIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH ORQALI HUQUQBUZARLIKLAR BO‘YICHA ELEKTRON ISH YURITISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning huquqbuzarliklar bo‘yicha tergov jarayonida elektron ish yuritish tizimi, xususan, milliy qonunchiligi hamda amaliy tajribasi o‘rganildi.

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Janubiy Koreya, Shvetsariya singari davlatlarning tajribasini milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish orqali elektron ish yuritishning huquqiy asoslarini mustahkamlash va erishiladigan natijalarga alohida to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: audio bayonnoma, elektron sanksiya, ekspertning elektron xulosasi, masofaviy so‘roq, aysizlik prezumsiyasi, elektron protsessual hujjatlar, elektron so‘rov.

УКРЕПЛЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ЭЛЕКТРОННОГО ДЕЛОПРОИЗВОДСТВА ПО ПРАВОНАРУШЕНИЯМ ПУТЕМ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ ОПЫТА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СИСТЕМУ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается система электронного делопроизводства, в частности национальное законодательство, а также практический опыт зарубежных стран в расследовании преступлений.

Особое внимание было уделено укреплению правовых основ электронного делопроизводства и достижимым результатам путем имплементации опыта зарубежных стран, в том числе таких, как Россия, Казахстан, Кыргызстан, Южная Корея, Швейцария, в систему национального законодательства.

Ключевые слова: аудиопротокол, электронная санкция, электронное заключение эксперта, дистанционный допрос, презумпция невиновности, электронные процессуальные документы, электронный запрос.

**STRENGTHENING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS
OF ELECTRONIC RECORD KEEPING FOR OFFENSES BY IMPLEMENTING
THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES INTO THE SYSTEM
OF NATIONAL LEGISLATION**

ANNOTATION

This article examines the electronic record-keeping system, in particular, national legislation, as well as the practical experience of foreign countries in investigating crimes.

Special attention was paid to strengthening the legal foundations of electronic record keeping and the results achieved by implementing the experience of foreign countries such as Russia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, South Korea, Switzerland, into the system of national legislation.

Key words: audio protocol, electronic sanction, electronic expert opinion, remote interrogation, presumption of innocence, electronic procedural documents, electronic request.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramay, jinoyatlar haqida xabarlarini ko'rib chiqish, jinoyat ishlarini yuritishda ma'lumotlar almashinuvi samarali yo'lga qo'yilishi borasida ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o'zaro to'liq integratsiya qilinmagan hamda ish hujjatlari qog'oz shaklida amalga oshirilmoqda, ma'lumotlarni o'z vaqtida olish imkoniyatining mavjud emasligi esa dastlabki tergov organlari faoliyatida protsessual muddatlar buzilishiga olib kelmoqda.

Shularni inobatga olgan holda, tergov faoliyatini yanada raqamlashtirish va ishni sudga qadar yuritish jarayonida yagona elektron hujjat almashinuvi tizimini yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-105-son qarori bilan "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimi joriy qilindi.

Yagona tergov axborot tizimi orqali ishni sudga qadar yuritish masalalarida elektron hujjat almashish Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, Davlat bojxona qo'mitasi hamda Milliy gvardiyaning surishtiruv va tergov organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, yuqoridagi surishtiruv hamda tergov organlari bilan elektron hamkorlikni amalga oshiruvchi 29 ta davlat organlari hamda tashkilotlari tasdiqlandi.

Shu o'rinda, surishtiruv va tergov organlari tomonidan "So'rovnoma", "Taqdimnoma", "Qaror", "Bayonnoma", "Xat", "Ma'lumotnoma", "Xabarnoma", "Topshiriq" kabi elektron shakldagi hujjatlarni (so'rovni) tizim orqali hamkorlikni amalga oshiruvchi tashkilotlarga yuborish hamda javobni elektron shaklda qabul qilish belgilangan.

Xorij tajribasi xususan, **Rossiya Federatsiyasi** Jinoyat-protsessual kodeksining 166-moddasi 2-qismida bayonnoma qo'lda yozilishi yoki texnik vositalar yordamida tayyorlanishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, ushbu kodeksning 474-moddasiga ko'ra protsessual hujjatlar tipografik, elektron yoki boshqa usullarda tayyorlanishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 42-1-moddasiga muvofiq esa Qozog'iston Respublikasida jinoyat protsessi qog'oz va (yoki) elektron shakllarda olib borilishi belgilab qo'yilgan.

Janubiy Koreyaning soddalashtirilgan ish yurituvlarida elektron hujjatlardan foydalanish to'g'risidagi qonunida[1] ayrim protsessual hujjatlarga nisbatan tergov olib borilayotgan paytda prokurorlar yoki sud politsiya xodimlari hujjatlarni elektron shaklda tayyorlashlari kerakligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (JPK)ga ko‘ra esa dastlabgi tergov, surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv harakatlari jarayonida **bayonnoma, taqdimnoma, qaror, xabarnoma, topshiriqlar va boshqa protsessual hujjatlar** tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida keltirilgan ushbu protsessual hujjatlarni tuzish tartibi belgilangan. Shunga qaramay, JPKda protsessual hujjatlarni tayyorlash shakli hanuz aniq bir norma bilan mustahkamlanmagan.

Bugungi kunda raqamlashtirish jarayonlari har bir soha rivojini kafolati ekanligini hisobga olganda, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 166-moddasi 2-qismi hamda 474-moddasi hamda Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 42-1-moddasini **milliy qonunchiligimizga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi**.

Ushbu normaning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga kiritish natijasida:

- protsessual hujjatlarni “kompyuterga qo‘lda kiritish” jarayonidan “elektron shaklda tayyorlash” jarayoniga o‘tishga imkon yaratiladi;
- protsessual jarayonlarning ushbu shaklini amaliyotga joriy etishning huquqiy asosi mustahkamlanadi;
- jinoyat ishi bo‘yicha barcha hujjatlar elektron formatda jamlanadi.

Amaliy jihatdan esa ushbu protsessual hujjatlarni Yagona tergov axborot tizimida **elektron shakllantirish imkoniyatini tashkil qilish lozim**.

Shuningdek, xorij tajribalarida sud-tergov jarayonlarini raqamlashtirishning bir qator yangi tartiblari ko‘zga tashlanadi.

Jumladan, Rossiya federatsiyasi qonunchiligida **“audio bayonnoma”** atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, “birinchi va apellyatsiya instantsiyalari sudlarining sud majlisida yozma shaklda va ovoz yozish uskunalari (audio bayonnomalari) yordamida bayonnoma tuziladi” (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi 259-modda) deb belgilangan.

Shu bilan birga, Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 347-moddasiga muvofiq, bayonnoma kompyuter, elektron (shu jumladan audio, video yozuvlar), mashinada yozilgan yoki qo‘lda yozilgan usulda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, Shveysariya Jinoyat-protsessual kodeksining 78-moddasi 6-qismiga ko‘ra, “videokonferensiya orqali berilgan og‘zaki ko‘rsatma bayonnoma yozilgan bayonot o‘rnini bosadi, uni imzolash va tasdiqlash shart emas” degan tartib belgilangan.

A.A.Trefilovning fikricha videoyozuvlar guvoh yoki jabrlanuvchining his-tuyg‘ulari, yuz ifodasi, imo-ishoralari va savollarga bo‘lgan reaksiyasini qog‘ozdagi yoki elektron protokollarga qaraganda ancha aniqroq va to‘liq aks ettiradi [2].

M.A.Utanov esa so‘rov bayonnomalari umuman rad etish kerak degan fikrni bildirgan [3].

Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining § 58a moddasiga muvofiq “Guvohni so‘roq qilish ovoz va tasvirga yozilishi mumkin”.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 91¹-moddasiga muvofiq “Guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar ishtirokidagi so‘roq, shaxslarni va narsalarni tanib olish, yuzlashtirish tergov harakatlari texnik vositalardan foydalangan holda videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin” deb belgilangan.

Ushbu kodeksning 91⁴-moddasida videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilgan tergov harakati jarayoni va natijalarini qayd qilish tartibi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra “Videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilgan tergov harakati jarayoni va natijalari elektron ma‘lumotlarni tashuvchi tegishli vositalarga bayonnoma tuzilgan holda yoziladi va qayd etiladi”.

Shundan kelib chiqib Shveysariya Jinoyat-protsessual kodeksi 78-moddasining tegishli normasini milliy qonunchilikka joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu normaning huquqiy asosga ega bo‘lishi protsessual hujjatni qayd etishning yangi bir turini amaliyatga joriy qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa raqamlashtirish jarayoning yana bir yutug‘ini o‘zida namoyon qiladi.

Ma'lumki, sudgacha bo'lgan tergov harakatlarini raqamlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonarli ta'minlash bilan bir qatorda, protsessual jarayonlarga sarflanayotgan muddatni qisqartirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish hamda ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berish hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasi tajribasida Oliy sud tomonidan mamlakat qonunchiligida **elektron sanksiya berish** bo'yicha loyiha ishlab chiqilgani katta ahamiyatga ega. Natijada prokuror va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi shaxs tergov sudyasining asoslantirilgan bayonnomasini elektron shaklda oladi.

Bundan tashqari, Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 264-moddasidasiga asosan Tergov sudyasiga yuborilgan jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomalari va tergov sudyasining qarorlari **elektron imzolangan hujjat shaklida** tayyorlanishi mumkin.

Qonunchiligimizga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalari — tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi tartibi joriy etilgan[4].

Unga ko'ra, tergov sudyasi quyidagilarni ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha sanksiyalar berishga haqli:

- qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq iltimosnoma;
- qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog'lik, iltimosnoma;
- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnoma; murdani ekskumatsiya qilish haqidagi iltimosnoma;
- pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnoma; tintuv o'tkazish haqidagi iltimosnoma;
- telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish haqidagi iltimosnoma;
- mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnoma.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 31¹-moddasiga tergov sudyasining vakolatlaridan biri sifatida elektron sanksiya berish bo'yicha yangi norma kiritish lozim.

Natijada esa tergov harakatlariga sanksiya berish bo'yicha materiallarni taqdim etish va ularning natijalarini bilish uchun zarur bo'lgan vaqtni minimallashtirish, shuningdek, jinoyat jarayonini soddalashtirish va sifatini oshirishga xizmat qiluvchi elektron sanksiya berish jarayoni huquqiy asosga ega bo'ladi.

Bundan tashqari tergov organlari faoliyatining elektron ish yuritish jarayoni nafaqat fuqarolar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan elektron aloqalarni, balki tegishli tashkilot va idoralarning ham xulosalarini elektron tartibda olishni talab qiladi.

Mazkur tartibni amaliyotga joriy etish ekspert hamda mutaxasislardan elektron xulosa berish tartibini JPKda huquqiy jihatdan asoslantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra "Ekspert yoki ekspertlar komissiyasi ekspert tekshiruvlarini o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi" (JPK 184-modda) deb belgilangan.

Ammo, ekspertning elektron xulosa berish tartibi joriy etilmagan.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 283-moddasining "ekspertning (ekspertlarning) xulosasi elektron hujjat shaklida berilishi mumkin" deb belgilangan, shuningdek, Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksini 193-moddasidasining "ekspert (ekspertlar) o'z nomidan yozma yoki elektron imzolangan hujjat shaklida xulosa tuzishi mumkin" deb belgilangan **normalarini milliy qonunchilikka implemintatsiya qilish masadga muvofiq bo'ladi**.

Shuningdek, ekspertlarning elektron xulosa berish tartibini O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 299¹-moddasiga ham qo'shish lozim.

Natijada, ekspertiza qarorlarini elektron yuborish hamda xulosalarni olish jarayonini raqamlashtirishning huquqiy asosi mustahkamlanadi. Bu esa protsessual jarayonlarning qisqarishiga ham xizmat qiladi.

Tergov harakatlarida amalga oshiriladigan protsessual jarayonlarning yana bir ahamiyatli jihati videokonferensaloqa rejimidan foydalanish bo'lib, ko'plab xorijiy davlatlar qonunchiligida, xususan milliy qonunchiligimizda ham belgilab qo'yilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 91²-moddasiga muvofiq tergov harakatlari quyidagi hollarda videokonferensaloqa rejimida o'tkaziladi:

1) shaxsning jinoyat ishini tergov qilayotgan organga yoki tergov harakati o'tkazilayotgan joyga sog'lig'ining holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra bevosita kelish imkoniyati bo'lmaganda;

2) jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash zarurati tug'ilganda;

3) kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari o'tkazilganda;

4) tergov harakatini o'tkazish qiyinlashishi yoki ortiqcha xarajatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida asosli sabablar mavjud bo'lganda.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 213-moddasiga ko'ra esa qonunchiligimizdan farqli ravishda masofaviy so'roqdan voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchilarni so'roq qilganda ham foydalanilishi belgilab qo'yilgan.

Protsessual jarayonlarni amalga oshirishda har jihatdan fuqarolarga qulaylik yaratish, qolaversa voyaga yetmagan shaxslarning ruhiy holatini hisobga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 121-moddasiga ko'ra "Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog va (yoki) psixolog yoxud jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o'tkaziladi" deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 91²-moddasi 1-qismiga 5-band sifatida masofaviy so'roqdan "voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchilarni so'roq qilganda foydalanilish" degan normani kiritish o'rinli bo'ladi.

Natijada esa, tergov jarayonida voyaga yetmagan shaxslar bilan bir qatorda ularning qonuniy vakillari, katta yoshdagi yaqin qarindoshlari, pedagog hamda psixologlarning masofaviy ishtiroki ta'minlanadi, hamda ortiqcha ovoragarchiliklarning oldi olinadi.

Ishni sudgacha yuritishning ayrim protsessual jarayonlari prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlaridan xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishni talab etadi.

Hamkorlik ishlarida ayrim xorijiy davlatlar ma'lumotlarni elektron yuborish hamda qabul qilish jarayonini huquqiy asoslar bilan mustahkamlagan.

Xususan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 560-moddasi 4-bandiga muvofiq Qozog'iston Respublikasining markaziy organi chet davlatga so'rov (topshiriq, iltimosnoma)ni pochta orqali, uni kechiktirishning iloji bo'lmagan hollarda esa — elektron, faksimil yoki boshqa aloqa vositalari orqali yuborishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 510-moddasida Huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rov tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra Qirg'iziston Respublikasi Markaziy organi so'rovchidan elektron, faksimil yoki boshqa aloqa vositasi bo'yicha olingan so'rovni (topshiriq, iltimosnoma) ko'rib chiqish uchun qabul qilishi mumkinligi belgilangan.

Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq, protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to'g'risida so'rov yuborish, protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etish, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni, fuqaroviy da'vogarni, fuqaroviy javobgarni, ularning vakillarini chaqirish kabi jarayonlarning tartibi belgilangan.

Shunga qaramay O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida so'rov yuborish va qabul qilish shakli bo'yicha aniq bir norma keltirilmagan.

Shularni hisobga olgan holda, qonunchiligimizga xorijiy davlatlar bilan ayrim protsessual harakatlar yuzasidan so‘rov yuborish va qabul qilishning elektron shaklini joriy etish lozim.

Natijada, ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqt va harajatlar qisqaradi, bu esa ish unumdorligini oshirishga, kerakli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida olishga imkoniyat yaratadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha elektron ish yuritishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bir qatorda ma'muriy ishlar bilan bog'liq jarayonlarning ayrim huquqiy asoslarini ham mustahkamlashga ehtiyoj sezilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 283-moddasiga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmaydigan hollar keltirib o'tilgan, shuningdek ushbu moddaning 3-qismida "Basharti fuqaro o'ziga solinadigan jarimaga e'tiroz bildirsa, u holda ushbu Kodeksning 279-moddasiga muvofiq bayonnoma tuziladi" deb belgilangan. Ammo ushbu moddaning 4-qismida "Transport vositasidan foydalangan holda yo'l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto- va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan, shuningdek soliq yoki bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining yoki Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali qayd etilgan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmaydi" deb belgilangan bo'lib, ushbu holatda huquqbuzar deb topilgan shaxsning e'tiroz bildirish imkoniyati mavjud emas.

Amalda tartibga ko'ra esa huquqbuzarlik avtomatlashtirilgan axborot tizimida qayd etilgan taqdirda huquqbuzar e'tiroz bildirib birinchi instansiya sudiga murojaat etadi. Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi Aybsizlik prezumpsiyasi deb nomlangan 1.5-moddasi eslatma qismiga ko'ra ushbu norma avtomatik rejimda ishlaydigan vositalari bilan qayd etilgan bo'lsa, qo'llanilmaydi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ushbu holatda huquqbuzar o'zining aybsizligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishga majburligi belgilab qo'yilgan[5].

Shularni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 283-moddasiga qo'shimcha tarzda ***“huquqbuzarlik avtomatlashtirilgan axborot tizimida qayd etilgan taqdirda huquqbuzar elektron qaror ustidan yuqori turuvchi organ yoki birinchi instansiya sudiga belgilangan tartibda e'tiroz berib, o'zining aybsizligini isbotlashi mumkin”*** degan normani kiritish o'rinli bo'ladi.

Balg'intayev Aset Oralgaziyevichning fikriga ko'ra jinoyat protsessida axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- 1) axborot xavfsizligini ta'minlash;
- 2) qonun va sud oldida adolat va tenglikni ta'minlash;
- 3) tegishli vakolatlarga ega kadrlarni tayyorlash;
- 4) sun'iy intellektdan foydalanish uchun huquqiy asos yaratish;
- 5) sun'iy intellektdan foydalanish inson resurslarini to'liq almashtirish emas, balki faqat yordamchi rol o'ynashi kerakligi;

6) jinoyat protsessi ishtirokchilarini aniqlash maqsadida masofadan turib ishlashda Digital-ID (biometrik ma'lumotlar bo'yicha identifikatsiya) texnologiyasidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish;

7) sud ishlarida sun'iy intellektni qo'llashning axloqiy jihatlarini o'rganish [6].

Shuningdek, Janubiy Koreya amaliyotida Elektron ishlarni yuritish tizimi (ECFS, <http://ecfs.scourt.go.kr>) orqali sud ishtirokchilari va ularning advokatlariga ishlarni ko'rib chiqish va boshqarish, shuningdek sud ma'lumotlari va protseduralariga elektron shaklda kirish imkoniyati yaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmonida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish maqsadida **Yagona elektron reyestr** yaratish orqali jinoyat ishi qo'zg'atilishidan tortib ish yuzasidan hukm chiqarilguniga qadar bo'lgan jarayonni **individual raqam** va **QR kodi orqali kuzatib borish** imkoniyatini joriy qilish belgilangan edi.

Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari tergov harakatlari bo'yicha tegishli protsessual hujjatlar bilan tergov organlariga shaxsan tashrif buyurgan holda tanishish imkoniyati mavjud. Ish bilan tanishib chiqayotgan shaxs ishdagi hujjatlardan ko'chirmalar yozib olishga haqli (davlat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining "Dastlabki tergovni tamomlash" (46-bob), "Surishtiruvning umumiy shartlari" (46¹-bob) deb nomlangan boblarida Jinoyat ishi tamomlangandan keyin undagi materiallar bilan tanishib chiqish huquqini ta'minlash tergovchi va surishtiruvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qarorning nusxasi tilxat bilan berilishi, bosharti qarorning nusxasi jo'natilsa, bu haqda ishga tegishli yozuv yozib qo'yilishi belgilab qo'yilgan (*MJtK 311-modda*).

Yagona elektron reyestrning ishga tushishi fuqarolar uchun qator qulayliklarni yaratishga xizmat qiladi. Jumladan, ish bilan bog'liq protsessual hujjatlar bilan real vaqt ichida elektron tanishish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa fuqarolar bilan bir qatorda surishtiruvchi hamda tergovchilar uchun ortiqcha ovoragarchiliklarni bartaraf etishga va vaqt sarfini qisqartirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, jinoyat ishlarini sudgacha yuritish bosqichida Yagona tergov axborot tizimidan elektron ma'lumot almashish bilan bir qatorda surishtiruvchi hamda tergovchilar faoliyatida foydalanishlari uchun protsessual hujjatlarni elektron shaklda tayyorlash tizimi yaratish, tegishli protsessual jarayonlarni rasmiylashtirishda audio bayonnomadan foydalanish, ayrim tergov harakatlariga elektron sanksiya berishning huquqiy asoslarini yaratish, ekspertlarning elektron xulosa berish tartibini joriy etish, masofaviy so'roqdan voyaga yetmagan guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilishda foydalanish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikdagi ayrim protsessual jarayonlar elektron so'rov yuborish hamda qabul qilish tartibini belgilash hamda ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha keltirilgan takliflar o'rinli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Act on the use of electronic documents in summary proceedings. Act No. 13714, Jan. 6, 2016. https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=56947&type=part&key=9
2. А.А. Трефилов. Информатизация уголовного процесса швейцарии. Научная электронная библиотека «КиберЛенинка». <https://cyberleninka.ru/article/n/informatizatsiya-ugolovnogo-protsesssa-shveysarii>
3. М. А. Утанов. Использование электронных доказательств в судебном разбирательстве в странах СНГ и дальнего зарубежья. Право и правореализация в современных условиях. <https://journal.apa.kz/index.php/path/article/view/257/214>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.06.2024 yildagi “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” psh PF-89-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6964387>
5. Постановление Пленума Верховного Суда РФ от 25.06.2019 N 20 "О некоторых вопросах, возникающих в судебной практике при рассмотрении дел об административных правонарушениях, предусмотренных главой 12 Кодекса Российской Федерации об административных правонарушениях"
https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_327611/
6. Балгынтаев Асет Оралгазыевич. Электронное уголовное судопроизводство в Республике Казахстан. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=34878697&pos=6;-106#pos=6;-106